

Giyohvandlik – bu illat

Giyohvand forscha - tojikcha soʻzdan olingan boʻlib – nasha, qoradori, koʻknori va shu kabi narkotiklarni isteʼmol qilishga odatlangan odam.

Giyohvandlik — bu narkotik moddalarga oʻrganib qolish, ruju qilish, mukkasidan natijasida kelib chiqadigan kasallik holati. Giyohvandlik – inson sogʻligʻiga xavf soluvchi illat boʻlib, kishi organizmini taʼsirchan moddalarga oʻrganib qolishini anglatadi. Giyohvandlik da oʻzini toʻxtata olmas holatda giyohvand moddalarni isteʼmol qilish xohishi paydo boʻladi, giyohvand moddalarga nisbatan talab, ruhan va jismonan bogʻliqlik ortib boradi. Giyohvandlik sekin boshlanib, surunkali va keskin davom etadi. Giyohvand moddalar dastlab bosqichda xursandchilik, xushnudlik, dimogʻchogʻlik xotirjamlik hissini uygʻotib, rohat qildiradi, keyin u vaqt oʻtishi bilan kasallikka aylanadi.

Giyohvandlikka, odatda, metin irodasiz, oʻzini boshqara olmaydigan, har qanday rohatlanishni oʻzida sinab koʻrishga xohishi boʻlgan, ruhan zaif kishilar beriluvchan boʻladi. Yoshlar tarbiyasidagi kamchilik va nuqsonlar tarkibida narkotik mavjud boʻlgan moddalarni isteʼmol qilib yuruvchi katta yoshdalilarga taklid va ularga oʻxshashlikka harakat, oilada yomon muhitni paydo boʻlishi yaʼni ota-onaning ichkilikboz yoki giyohvand boʻlishi, hamda giyohvand moddalarning oson topilishi giyohvandlikka sabab boʻlishi mumkin.

Yer yuzining turli hududlarida giyohvandlikning baʼzi turlari kuzatiladi. Giyohvandlikning heroinizm turi hozirgi vaqtda juda keng va ayanchli tarzda tarkalib bormoqda. Giyohvandlik avjini cheklash uchun koʻplab mamlakatlarda tegishli tadbirlar amalga oshirilgan. Xususan Oʻzbekiston Respublikasida giyohvandlikka qarshi kurash qoʻmitasi tashkil qilingan va davlat dasturi ishlab chiqilgan. Respublikada barcha hududlarida narkologiya markazlari tashkil qilingan va bu markazlarda narkologiya boʻyicha mutaxassislar giyohvandlikka qarshi keskin kurash olib borishmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1987-yil 7-dekabrdagi qaroriga asosan BMT bosh Assambeliyasi tomonidan har yili “26-iyun - Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuni” deb eʼlon qilingan.

1993-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Narkotik moddalar ustidan nazorat qilish va jinoyatchilikni oldini olish Boshqarmasining Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi Toshkent shahrida ochilgan u ayni kunlarda ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Giyohvandlik qanchalik fojia ekanligini to'la anglagan holda, mamlakatimizning har bir fuqarosi o'z sog'lig'iga masuliyatni oshirishi, uni saqlashi, mustahkamlashga ongli munosabatda bo'lishi, sog'lom turmush tarzi talablariga rioya qilishga yetarlicha e'tibor qaratishi shart. O'ylab ko'ring, hech bir farzand onadan giyohvand bo'lib tug'ilmaydi.

Bugundan boshlab giyohvandlikka qarshi kurashsak va o'z atrofimizdagilarni bu illatdan qutulishga chorlasak mustaqil O'zbekistonimizning buyuk kelajagi va ravnaqi yo'lida beqiyos hissa qo'shgan bo'lamiz.

Kenjayev T.